

AHMAD YASSAVIY MAQBARASI

Siddiqov Husan

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix
fakulteti tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ahmad Yassaviy hayoti va uning maqbarasi haqida. Maqbaraning qurilish tarixi, dizayni, grafikasi, hozirgi kundagi holati haqida qisqacha bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *Sayram qishlog'i, Shayx Ibrohim, Yusuf Hamadoniy, Turkiston, Amir Temur, Temuriylar, "Turkiston avliyosi".*

Ahmad Yassaviy 1041-yilda Sayram qishlog'ida Shayx Ibrohim xonadonida tug'iladi. Yetti yoshida otasidan, so'ng onasidan yetim qoladi. U Arslon bobo nomli inson qo'lida hamda aksariyat tolibi ilmlar kabi Buxoroda tarbiya va tahsil oladi. U yerda mashhur Yusuf Hamadoniydan suluk odoblarini o'rganib, so'ng Turkistonga qaytadi va o'z tariqatiga asos soladi. U so'fiylik g'oyalari, shuningdek, o'z tariqati asoslarini targ'ib etishda she'rlaridan foydalanadi. Islom dini aqidalari va o'zi asoslagan g'oyalarini she'riy tarzda bayon etish asosida keng omma orasiga kirib boradi. Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ilohiy asoslari to'g'ridan-to'g'ri "Qur'on" oyatlari va payg'ambar Muhammad Alayhissalom hadislari negizida shakllanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida payg'ambar Muhammad Alayhissalom ta'limotida ulug'langan ma'naviy-axloqiy xislatlar-muruvvat, saxovat, qanoat va rostgo'ylik targ'ib qilinadi, bildirilayotgan fikrlar kishilarni faqat Allohga tobe bo'lishga undaydi. Uning hikmatlarida pand-nasihat asosiy o'rin tutadi. Ularning barchasida so'fiylik tariqatining amallari - haqiqatni bilish. Haqni sevish, nafsu dunyodan chekinishga da'vat etuvchi g'oyalar o'z aksini topgandir. Inson ruhi va ongini har qanday illat, qabohatdan ozod etish kerak, ana shundagina insonda axloqida ko'zga tashlanuvchi ayrim nuqsonlar yuzaga kelmaydi, degan fikrlar komil insonni shakllantirishning asosiy yo'llaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ahmad Yassaviyning Islom dini rivoji uchun qilgan harakatini har doim e'tirof qilmasdan ilojimiz yuq. Ahmad Yassaviyning shaxsiga cheksiz hurmatni ayniqsa, unga atab Amir Temur tomonidan bunyod etilgan maqbaradan ham bilishimiz mumkin. Amir Temurning Ahmad Yassaviyga hurmati cheksiz edi. Shu sababdan ham Ahmad Yassaviy sharafiga yodgorlik majmuasini bunyod ettirdi.

Ahmad Yassaviy maqbarasi hozirgi Turkiston shahrining shimoli-sharqida joylashgan, qadimgi karvon savdo markazi, avval Xazret deb atalgan. Qozog'istonning janubiy qismida Yassi yaqinida joylashgan bo'lib, u hozirda arxeologik qadamjolardan biri. Arxeologik hududning o'rta asr inshootlari, jumladan, boshqa maqbaralar, masjidlar va hammomlar qoldiqlari o'sha davr ijtimoiy-ma'rifiy muhitidan darak berishi bilan xarakterli. Dastlab Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustida kichik maqbara qurilgan. Keyin Amir Temur tomonidan ulkan mahobatli maqbara majmui bunyod

etilgan, bino loyihasini ishlab chiqishda uning o'zi shaxsan ishtirok etgan. Qurilishga devonning xayriya ishlari boshlig'i Mavloni Ubaydulla Sadr bosh etib tayinlangan. Qurilish qisqa muddatda zudlik bilan boshlanib jadal qurila boshlangan, biroq Amir Temurning vafotidan so'ng qurilish to'xtab qolgan. Bino oldidagi ulkan peshtoqni Buxoro hukmdori Abdullaxon II tiklashga harakat qilgan. Yassaviy majmuasi ko'lam jihatdan o'sha davrlarda bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi, Shahrisabzdagi Oqsaroy va Dor us Sodat majmuiga tenglashadi.

Ahmad Yassaviy maqbarasi dizayni janubdan shimolga cho'zilgan to'rtburchak tarhli (46,5x65,5 m), peshtoq gumbazli; mujassamot markazida jamoatxona va uning atrofida go'rxona, masjid, katta va kichik oqsaroy, kitobxona, halimxona, quduqxona va 2 qavatli hujralar jami 35 dan ortiq xonalar joylashgan; majmuaning janubi-g'arb tomonidagi yer osti chillaxonasi Yassaviy davrida paydo bo'lgan, keyingi davrlarda qayta tuzatilgan. Majmua tashqi devorlarining qalinligi 1,8–2 m, jamoatxona devorining qalinligi 3 m. Mahobatli bino jamoatxona bilan bog'langan 2 qavatli 8 yo'laklar bilan simmetrik tarzda 8 qismga bo'lingan; go'rxonaga jamoatxona bilan bog'lanmagan alohida yo'lak orqali kiriladi, kirish eshigi tepasidagi tosh lavhaga majmua Amir Temur buyrug'iga binoan bunyod etilgani qayd etilgan. Majmuaning bosh tarzidagi ulkan peshtoq (kengligi 50 m, ravog'iniki 18,2 m)ning ikki yoniga guldastalar, orqa burchaklariga ustungo'shalar ishlangan, peshtoq orqali jamoatxonaga kiriladi, jamoatxona (balandligi 37,5 m) katta gumbaz (diametri 18,2 m) bilan yopilgan; xona o'rtasiga qirq quloqli nazirniyoz qozoni o'rnatilgan, bu yerda haftada 2 marta kambag'al bechoralar va musofirlarga halim tortilgan. Jamoatxona to'ridagi go'rxona (7,15x7,15 m)da yashil yashma toshidan ishlangan sag'ana (3,25x2,2 m) bo'lib, unda o'yma naqshlar va kitobalar saqlangan. Go'rxona va masjid qo'shqavatli gumbaz bilan yopilgan: go'rxonaning tashqi gumbazi (diametri 10 m, balandligi 21 m) 52 ta qovurg'ali bo'lib, sirkori koshinlar bilan kitobalar bitilgan baland poygumbazga o'rnatilgan, masjid gumbazining poygumbazida 16 ta panjarali darchalari bor, shiftidagi 6 qirrali yulduz shakli xonaga jozibadorlik baxsh etgan, ayniqsa mehrob (3,5x2,5 m) hashamdor bezatilgan. Jamoatxona, go'rxona, masjidning ichki devorlariga ravoqlar ishlanib, xonalar ichi kengaytirilgan, gumbaz va ravoqlar muqarnaslar bilan to'ldirilgan. Bino ko'lamini uning tashqi bezaklaridagi koshinkori handasiy naqsh va kitobalar ham ta'kidlaydi. Yassaviy majmuasining tashqi devor yuzasi 3 qismga bo'linib, poydevoriga (balandligi 1,85 m) koshinkori girih naqshlar, o'rta asosiy qismga yirik handasiy shakllar va yuqori hoshiya qismiga (balandligi 2,62 m) kitobalar ishlangan. Go'rxona va masjid ichkarisi hallangan rangli koshinlar bilan ziynatlangan. Bino eshiklari yog'och o'ymakorligida bezatilgan, metall qismlari rixtagarlik, kandakorlik usulida bajarilgan. Maqbara bezaklari orasida usta Safar, Hoji Hasan Sheroziy, Shams Abd ulVahhob Sheroziy, Izzatiddin ibn Tojiddin Isfahoniy nomlari saklangan. Maqbaraning tashqi devorlari geometrik naqshlarni tashkil etuvchi sirlangan koshinlar bilan qoplangan, kufiy va suls epigrafik bezaklari Qur'ondan olingan. Dastlabki rejalarda ikkita minora qo'shilishi ham ko'zda tutilgan, ammo 1405-

yilda qurilish to'xtatilganda bu amalga oshirilmadi. Maqbara nafis va mukammal qilib bunyod etilgan hisoblanadi. Har bir bezak va naqsh bir-biri bilan uyg'unlashgan hisoblanadi.

Maqbaraning diniy va madaniy ahamiyati ancha sezilarli darajada hisoblanadi. Jumladan, Temuriylar buyurgan kattaroq maqbara ziyoratgohning diniy ahamiyatini yanada oshirdi. Qozoq xonligi davrida taniqli shaxslar yodgorlik yaqinida dafn qilishni afzal ko'rganlar. Jumladan, Abulxayr, Rabiyl Sulton-Begim, Jo'lbarisxon, Esimxon, Ondan-Sulton, Ablayxon, Qoz davusti Kazbekbi. Maqbaraning muqaddas obro'si begona yurtlarga ham yetib bordi. XVI asr boshlarida qo'shni o'zbek xonligidan Muhammad Shayboniyxonning vorisi bo'lgan Ubaydullaxon keyinchalik Mo'g'ullar imperiyasining asoschisi bo'ladigan Boburga qarshi jangidan oldin maqbarada to'xtagan. Agar g'olib chiqsa, uning hukmronligi shariat qonunlariga to'liq amal qilishiga qasam ichadi. Sovet davrida yodgorlik ommaviy ravishda yopilganiga qaramay, tartib bekor qilinganidan keyin maqbara ziyoratchilarni jalb qilishda davom etgan. Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi hozirgi kungacha qozoq musulmonlarining ziyoratgohi bo'lib kelgan. Demak, Turkiston shahri O'rta Osiyo musulmonlari uchun ikkinchi Makka bo'ldi. Darhaqiqat, maqbaraning shahar uchun ahamiyatini Turkistonning sobiq nomi Hazrati Turkiston tasdiqlaydi, bu so'zma-so'z "Turkiston avliyosi" degan ma'noni anglatadi va to'g'ridan-to'g'ri Yassaviyga ishora. O'ziga xos qozoq millati paydo bo'lgan avvalgi Qozoq xonligining poytaxti sifatida Turkiston hozirgi Qozog'istonning madaniy yuragi bo'lib qolmoqda. Maqbara so'fiy ilohiyot olimi va xonlikning qozoq zodagonlari dafn etilgan joy bo'lib, shaharning nufuzini yanada oshirdi. Qozoq millati va Markaziy Osiyo islom dinining hozirgi zamonda ham davom etishi Turkistonning tarixiy va madaniy ahamiyati, markazida Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi ekanligidan dalolat beradi. Islom olamining eng buyuk maqbaralaridan biri sifatida qabul qilingan u saqlanib qolgan va mintaqadagi e'tiqod va me'morchilik yutuqlarining muhim yodgorligi bo'lib qolmoqda.

Xulosa Ahmad Yassaviy Islom dinining Movarounnahr hududida rivojlanishida odamlarning ma'rifatli komil inson bo'lishi uchun juda ko'p o'z muridlari bilan harakat qildi. Ahmad Yassaviy Movarounnahr aholisining ilm egalashga, Odob-axloqli bo'lishga chaqirdi. Islom dinini hurmat qilishga, tinmay o'qib, ibodat qilishga xalqni undadi. Ahmad Yassaviyning bu ishlarini shogirdlari davom ettirdi. Ahmad Yassaviy shaxsiga Amir Temur tomonidan hurmat bajo qilinib, maqbara bunyod etildi. Amir Temurdan keyin ham ko'plab hukmdorlar Ahmad Yassaviy shaxsini abadiylashtirish uchun ko'pdan-ko'p harakat qildilar. Abadiy yashash uchun adabiy va madaniy meros qoldirish kerak ekan. Ahmad Yassaviy ana shunday merosni qoldirgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. История Средней Азии. Москва: Европины. Русская панорама, 2003, с.337

2. Muhammad Hakimxon To'ra ibn Ma'sumxon To'ra. "Muntaxab ut-tavorix" (Ho'qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar), fors-tojik tilidan Sh.Vohidov tarjimasi. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2010-y.

3. История Казахстана в персидских источниках. Т.5. Алматы: Дайк-Пресс, 2007, с.87

4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yassaviy_majmuasi

5. <http://world.meros.uz/uz/wonder/view?id=15>

6. <https://xs.uz/uz/post/turkistondagi-khozha-ahmad-yassavij-maqbarasi-15-iyundan-ochiladi>

7. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/joriy-yilda-maqbara-holatini-urganishda-bir-qancha-ilmiy-tashkilotlar-ishtirok-etadi>